

SURXON VOHASIDA YASHOVCHI YUZ (JUZ) LARNING AN'ANAVIY CHORVACHILIGIDA QO'YCHILIKNING AHAMIYATI

Dulanov Otabek Yuldashevich

Tarix fakulteti jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Vohaning tog'lari va dashtlarida chorvachilik xo'jaligini rivojlanishi uchun qulay sharoit yuzaga kelgan. Ayniqsa, yaylovlarning qulayligi, chorva uchun turli-tuman o'tloqlarning, suv havzalarining ko'pligi chorvachilikka sharoit uchun imkoniyat bergan.

Kalit so'zlar: Ovchi, chorvador, meridional, vertikal, statsionar, O'troq aholi, og'il, og'il-yaylov, haydov-yaylov, yaylov, jilg'a, buloq, chegana, qirqim.

Surxondaryo viloyati hududining shimoli va g'arbiy tomonlari tog' va tog'oldi mintaqalaridan iborat bo'lib, ovchi va chorvador aholi yashashi uchun juda qulay hisoblangan. Vohada o'simliklardan: shuvoq, yantoq, kovul, gulxayri, qashqa yo'ng'uchqa, bug'doyiq, chalov, gulsapsar, qo'ziquloq, chirich (shirach), sutlama, karrak, latta karrak, kiyik o't, bo'yi modaron va boshqalar; mavsumiy rang o'tlardan: no'xatak, chuchmoma, shivit, cho'chqa piyoz (anzur piyoz), qo'ng'irbosh, qoqigul, quyon, takasoqol, ismaloq, tortmoq, g'ozoyoq, pechak, qo'zigul va maysa o'tlarining o'nlab turlari; o'rmon daraxtlaridan: archa, do'landa, zarang, uchqat, irg'ay, namatak, chiya, yovvoyi bodom, pista, olmurut, bodomcha va boshqalar o'sib, chorva uchun sevimli ozuqa hisoblangan.

Etnograf S.Polyakovning qayd etishicha, Markaziy Osiyoda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilikning meridional, vertikal va statsionar shakllari mavjud bo'lgan¹. Surxon vohasida ham chorvachilikning barcha shakllarini uchratish mumkin. Surxon vohasining tog' oldi va tog'-yaylov hududi o'simliklar dunyosining boyligi-voha chorvachiligi rivojida muhim omil sanalgan. Vohada istiqomat qilgan aholi ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi, yarim o'troq va o'troqlashgan holda hayot kechirgan. O'troq aholi chorvachilikni dehqonchilik bilan birga qo'shib olib borgan, ammo dehqonchilik etakchi o'rin tutgan. Yarim o'troq aholi xo'jaligida dehqonchilik chorvachilik bilan qo'shib olib borilgan, bunda dehqonchilik etakchi o'rinda turgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilar xo'jaligida chorvachilik asosiy rol o'ynagan.

¹ Полуаков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – М.: МГУ. 1980. – С. 25.; Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davr madaniyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2017. – B. 13.

Markaziy Osiyo aholisida chorva xo'jaligining tarixan shakllangan uchta turi: ko'chmanchi (ko'chma va yarim ko'chma) chorvachilik, yaylov chorvachiligi va qo'ra (og'il) chorvachiligi keng ommalashgan². Vohada ham bu xo'jalik turi boshqa erdagilardan ko'p farq qilmaydi va yarim o'troqlikka asoslangan yaylov chorvachiligi keng taraqqiy etgan. Chorvadorlar tog' va tog' oldi adirlari, keng cho'l-dasht mavzellarida chorva boqish bilan ko'chmanchilik hayot tarzida shug'ullanishgan. Mavsumga em-xashak, suv zahiralariga qarab bir erdan ikkinchi joyga ko'chishgan, qishlovni ob-havosi nisbatan iliqroq hisoblangan, izg'irin shamollardan ixotalangan tog' ungurlari, daralari atrofidagi yaylovlarda o'tkazishgan³.

Yuz (juz) lar yashaydigan tog'li tumanlarda yarim ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi og'il, og'il-yaylov, haydov-yaylov kabi chorvachilik tiplariga ajralgan. Oltinsoy, Denov va Uzun tumanlarida yarim o'troq va o'troq chorvachilik xo'jaligini tashkil etish tamoyillari chorva bilan ta'minlash darajasiga ko'ra xo'jalikni tashkil qilishda farqlangan⁴. Aholi aralash xo'jalik tarzi, ya'ni chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lishgan.

Surxondaryo vohasida dehqonchilik bilan birgalikda chorvachilik va ayniqsa qo'ychilik rivoji uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan. O'lkashunos olim G.Arandarenkoning ta'kidlashicha: "... xo'jalikning boshqa hech bir turiga qo'ychilikka bo'lgani kabi katta e'tibor va mehnat sarf etilmagan. Barcha hududda qo'ychilikka katta daromad manbai sifatida qaralgan"⁵.

Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston boshqa mol go'shtlariga qaraganda qo'y go'shtini ko'proq iste'mol qiluvchi⁶ hudud bo'lganligi uchun ham qo'ychilik sohasi bu erda yaxshi rivojlangan.

O'zbekistonda 1950 - yilning 1 - yanvar holatiga ko'ra hamma qishloq xo'jalik hayvonlari orasida qoramol, ot, tuya va eshaklar atigi 33 % bo'lgani holda, qo'y va echkilar 67 % ni⁷ tashkil etgan. Vohada qo'ychilikni yanada rivojlantirishning omili ko'p jihatdan yaylovlarga bog'liq bo'lgan.

O'tmishda vohadagi yaylov erlariga mulk sifatida qaralgan. Ya'ni, yaylovlar ma'lum jamoa tomonidan foydalanilgan va o'zining tabiiy chegaralariga ega bo'lgan. Bu kabi yaylovlardan faqatgina ma'lum bir jamoagina foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Mahalliy aholining qadimdan yaylov erlarini tasarruf etish va unga egalik qilish bo'yicha o'z tartib-qoidalari mavjud bo'lgan. Qishloq ahlining odatiga ko'ra, yaylov erlar mulk huquqi jihatidan ikki turga, ya'ni ma'lum chorvador yoki chorvadorlar guruhi tomonidan foydalaniladigan va jamoa

² Полуаков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана... – С. 44.

³ Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod tumanlari. 2020-2021 yillar.

⁴ Dala yozuvlari. Oltinsoy, Denov, Uzun tumanlari. 2020-2021 yillar.

⁵ Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестан' 1874 – 1889. С. – Петербург', 1889. – С. 83.

⁶ Kiyatkin P.F. O'zbekistonda qo'ychilik. – Toshkent, O'ZDAVNASHR, 1952. – B. 4.

⁷ Kiyatkin P.F. O'zbekistonda qo'ychilik... 1952. – B. 4.

tomonidan tasarruf qilinishi mumkin bo'lgan yaylovlarga bo'lingan⁸. Birinchi turdagi yaylovlar o'zining tabiiy chegaralariga ega bo'lgan va maydonining hajmi kichikroq bo'lgan. Ikkinchi turdagi yaylovlar odatda katta maydonlarni o'z ichiga olgan. Yaylovlarga nisbatan egalik huquqini aniqlashda aksariyat hollarda qozilik yoki boshqa yuridik hujjatlardan foydalanilmasdan, balki og'zaki guvohlik asosidagi ko'rsatmalarga tayanilgan.

Yoz faslida tog' oldi hududlarida joylashgan yaylovlardan ma'lum bir jamoa foydalangan. Qo'ychilik sohasi ko'chma chorvachilik va yaylov chorvachiligi shaklida rivojlangan. Ko'chma chorvachilikda-qo'ylar yil davomida mavsumiy yaylovlarda boqilgan va chorvachilik xo'jaligida u asosiy o'rinni egallagan⁹. Chorvadorlar ham podaning orqasidan bir yaylovdan ikkinchi yaylovga ko'chib yurganlar. Yaylov chorvachiligida-qo'ylar bahorda qishloqqa qarashli doimiy yaylovlarga olib ketilib, yozda qishloq atrofidagi ekinzorlar va cho'l mintaqalariga qarab boqilgan.

Chorvadorlar yaylov chorvachiligida chorva boqiluvchi hududdan turli maqsadlarda foydalangan. Masalan, yaylov chorvachiligining haydov usulida qo'ylar turar joylari, ya'ni qishloqlar atrofidagi yaylovlar ekindan bo'shagan erlarida cho'ponlar tomonidan boqilgan. Bunday sharoitda mahalliy aholi chorvaning orqasidan ko'chib yurmagan. Shuningdek, qo'ychilikning qo'ton-yaylov usulidan, asosan aholi gavjum va chorva uchun yaylov etarli bo'lmagan joylarda foydalanilgan. Uy chorvachiligida esa qo'ylar uncha ko'p bo'lmagan va ular chorva dalalari va yaylovlarga doimiy ravishda chiqarilmagan. Aksariyat hollarda ular uy sharoitida qaralgan.

Chorvadorlar guruhining azaldan tabiiy hududiy-qishki va yozgi yaylovlari mavjud bo'lib, bahorda yozgi yaylovlarga ko'chishgan bo'lsa, kuzning so'nggi kunlarida esa ular qishki yaylovlariga qaytib kelishgan¹⁰. Ma'lumki, chorvadorlar guruhi tasarrufida bo'lgan yaylovlarga xususiy mulk sifatida qaralmagan. Bunday holat faqatgina bir chorvador yoki uning ajdodlari tomonidan yaylovdan ma'lum bir muddat davomida foydalanish jarayoniga bog'liq bo'lib kelgan. Shuning uchun ham boshqa turdagi erlardan farq qilib, vohaning ma'lum joylarida yaylov erlari sotilmagan yoki berilmagan¹¹.

Chorvador aholi tog' yaylovlarida jilg'alar, buloqlar asosiy suv manbai hisoblangan joylarga alohida e'tibor qaratishgan. Voha aholisi yashaydigan joyidan kelib chiqib, chorvani yaylovga haydab boqish, yaylovda saqlash va qo'ra-og'ilxona turlariga bo'lgan. Hisor tog'ining shimoliy-g'arbiy yonbag'irlarida qo'ylarni deyarli yil davomida yaylovda boqilgan. Dastlab

⁸ Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod, Uzun, Sariosiyo tumanlari. 2022 yil.

⁹ Шанигузов К.Ш. Отгонное животноводство у узбеков. – Ленинград, 1973. – С. 37.

¹⁰ Martin V. Law and custom in the steppe: the Kazakhs of the Middle Horde and Russian colonization in the nineteenth century. – Curzon, 2001. – P. 21.

¹¹ Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani, Shakarqamish qishlog'i. 2022 yil.

dashtda, o't-o'lanlar qurigach, adirlarda, so'ngra tog'dagi yaylovlarda bahordan kuzgacha boqilgan. Kuzga kelib chorva qishloq atrofi va cho'lga qarab haydalgan.

Voha qishloq aholisi foydalanadigan yana bir yaylov turi-barcha chorvadorlar tasarruf qilishi mumkin bo'lgan hududlar hisoblangan. Bu kabi yaylovlardan foydalanishda ma'lum bir qishloq yoki jamoalar o'rtasida qat'iy chegaralar bo'lmagan, biroq odat bo'yicha bir quduq atrofida joylashgan hamda tabiiy chegaralariga ega yaylovlar ayni bir jamoa tomonidan o'zlashtirilgan¹². Qo'ychilik bilan shug'ullanuvchi o'troq yashovchi aholi yoki qishloqning 8-10 ta oilasi qo'y va echkilarini qo'shib, ularga cho'pon yollagan. Qishloq aholisining ushoq mollari "chegana" deyilgan, cho'ponlar uchun bunday ishlar asosan mavsumiy xarakterga ega bo'lgan.

Avvalo, yaylovda qo'ton qurilgan. Chunki, chorvachilikda qo'tonning ahamiyati katta bo'lib, qish faslida qo'ylar uchun yotoq vazifasini o'tagan. Qashqadaryo vohasida asosan qo'tonning janub tomoni doimo maxsus holda usti ochiq qoldirilgan. Chunki, inshootning janub tomonidan doimo quyosh nuri kirib, uni isitib turgan. Bu an'ana Surxon vohasiga ham xos bo'lib, qo'raga quyosh nuri tushishi muhim bo'lgan. Chunki, zax joyda turli kassaliklar tez avj olgan va bu holat chorvani nobud bo'lishiga olib kelgan.

Yaylovlarda bahor faslida qurilgan qo'tonlarga shamol etarlicha tegishi va yomg'ir suvi to'planmaydigan joy bo'lishi muhim hisoblangan. Shuning uchun ham qo'ralar adirlarning shamol tegadigan qiyalik qismida qurilgan. Cho'ponlar qo'ylarni bir necha guruhlariga, ya'ni suruvga taqsimlagan. Har bir suruvda qo'ylarning soni turlicha bo'lgan. Chorvani suruvga ajratib boqish mahalliy sharoitga yoki yaylovning tekis, notekisligiga bog'liq bo'lgan. Qo'ylar sonini dalaning imkoniyatidan kelib chiqib belgilash muhim tadbirlardan biri hisoblangan.

Voha tog' oldi qishloqlarida qo'ylar bahorgi yaylovga chiqqanidan keyin, asosiy tadbirlardan biri bu-chorva qirqimi (jun olishi) bo'lgan. Qirqim mavsumi bir yilda ikki marta, ba'zi hududlarda bir marta o'tkazilgan. Birinchi qirqim davri aprel oyining oxiri, may oyining boshlarida boshlangan. Ikkinchi davri esa avgust oyining oxiri va sentyabr oyining boshlariga to'g'ri kelgan. "Qo'y kerak bo'lsa avgustda, jun kerak bo'lsa sentyabrda qirqimni o'tkaz"¹³ maqoli Jizzax vohasi hududiga ham xos bo'lib, bunday ta'kid ikkinchi qirqimni avgust oyida o'tkazishning foydasi ko'proqligiga ishoradir. Chunki, avgustda qirqim o'tkazilsa, bu vaqtda kunlar issiq, qo'ylarning yunggi sovuq tushguncha o'sib qoladi. Sentyabr oyidagi qirqimda jun tolasi uzun bo'lib, sifati yaxshi bo'lishi mumkindir, lekin bu qo'ylar uchun xavfli bo'lib, ularning sovuqda nobud bo'lishiga olib kelgan. Xulosa qilib aytganda, vohada etishtirilgan qo'ylar o'zining turli sifatlari bilan ajralib turgan. Turli ozuqaga boy tog' va tog' oldi

¹² Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной Степи... – С. 27.

¹³ Sarimsoqov A.A. O'zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg'ona vodiysi materiallari asosida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – B. 89.

hududlarning mavjudligi qoramolchilikning rivojiga imkon bergan bo'lsa-da, biroq mazkur soha qo'ychilik tarmog'i kabi keng rivojlanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Полуаков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – М.: МГУ. 1980. – С. 25.; Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davr madaniyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2017. – B. 13.
2. Полуаков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана... – С. 44.
3. Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod tumanlari. 2020-2021 yillar.
4. Dala yozuvlari. Oltinsoy, Denov, Uzun tumanlari. 2020-2021 yillar.
5. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестан' 1874 – 1889. С. – Петербург', 1889. – С. 83.
6. Kiyatkin P.F. O'zbekistonda qo'ychilik. – Toshkent, O'ZDAVNASHR, 1952. – B. 4.
7. Kiyatkin P.F. O'zbekistonda qo'ychilik... 1952. – B. 4.
8. Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod, Uzun, Sariosiyo tumanlari. 2022 yil.
9. Шаниязов К.Ш. Отгонное животноводство у узбеков. – Ленинград, 1973. – С. 37.
10. Martin V. Law and custom in the steppe: the Kazakhs of the Middle Horde and Russian colonization in the nineteenth century. – Curzon, 2001. – P. 21.
11. Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani, Shakarqamish qishlog'i. 2022 yil.
- Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной Степи... – С. 27.
12. Sarimsoqov A.A. O'zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg'ona vodiysi materiallari asosida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – B. 89.